**Samarqand viloyati**
**Statistika boshqarmasi**

# Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik

2018 yilning yanvar-senyabrida 3,2 ming ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,1 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (24,7 %), savdo sohasida (21,8 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (15,1 %), qurilish tarmog'ida (12,8 %), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (10,4 %), tashish va saqlash (2,9 %) tashkil etgan.

**2018 yil yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi**




**2018 yilning yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi**

YHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 70,7 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich 2017 yil yanvar-sentyabrga nisbatan 1,8 bandga kamaygan.




**2018 yil yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlikning hududlar bo`yicha ulushi (% da)**

| | *Sanoat* | *Qurilish* | *Xizmatlar* |
|---|---|---|---|
| **Samarqand viloyati** | **52,0** | **98,3** | **74,1** |
| Samarqand.sh | 39,7 | 94,7 | 58,3 |
| Kattaqurg'on.sh | 48,5 | 100 | 92,1 |
| Bulung'ur | 100 | 100 | 98,8 |
| Jomboy | 17,3 | 100 | 87,3 |
| Ishtixon | 62,6 | 100 | 98,5 |
| Kattaqurg'on | 49,4 | 100 | 98,7 |
| Narpay | 28,2 | 100 | 98 |
| Nurobod | 100 | 100 | 95,7 |
| Oqdaryo | 84,6 | 100 | 98,3 |
| Payariq | 54,1 | 100 | 98,5 |
| Pasdarg'om | 67,3 | 100 | 82,6 |
| Paxtachi | 76,8 | 100 | 96,3 |
| Samarqand | 99,5 | 100 | 93 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Tayloq | 82,5 | 100 | 86 |
| Urgut | 96,9 | 100 | 96,9 |
| Qo’shrabot | 100 | 100 | 99,1 |

Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushi Bulung’ur (100,0 %), Nurobod (100,0 %), Samarqand tumanlarida (99,5 %);

Qurilishda Urgut (100,0 %), Jomboy (100,0 %), Pasdarg’om (100,0 %), Nurobod tumanlarida (100,0 %);

Xizmatlar sohasida Qo’shrabot (99,1 %), Bulung’ur (98,8 %), Kattaqurg’on (98,7 %), Ishtixon (98,5 %) va Narpay (98,0 %) tumanlarida qayd etildi.

2018 yilning yanvar–sentyabrida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 4167,5 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishning (52,0 %) yoki 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`sish sur`ati 103,5 % ni tashkil qildi;



2196,1 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 54,7 %) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–senyabriga nisbatan o`sish sur`ati 130,1 % ni tashkil qildi;



2106,3 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 98,3 % ) bajarildi va 2017 yilning yanvar– sentyabriga nisbatan o`sish sur`ati 114,2 % ni tashkil qildi;




5271,5 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyat jami xizmatlar xajmining 74,1 %) 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`sish sur`ati 104,5 % ni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 90,8 % yoki 7099,9 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 102,3 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

–154,2 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 74,3 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 16,4 mln. AQSh dollariga yoki 12 % ga ko`p;





– avtomobil transporti yuk aylanmasi 3,4 % ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 96,9 %) ko`payishi ta`minlandi;

– yo`lovchi aylanmasining esa 3,0 % ga (viloyat jami yo`lovchi aylanmasining 98,2 % ) ko`payishi ta`minlandi;





**Kichik tadbirkorlikning ulushi**
**(umumiy hajmiga nisbatan % da)**




**2018 yil yanvar-sentyabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati**




Hududlar bo`yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab

chiqarish hajmi Samarqand shahri (1466,7 mlrd.so'm), Samarqand tumani (610,6 mlrd.so'm), Tayloq tumani (535,6 mlrd.so'm) va Bulung'ur tumani (376,2 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Nurobod tumanida (20,0 mlrd.so'm) va Qo'shrabot tumanida (16,5 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.



**2018 yil yanvar-sentyabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati**




Hududlar bo`yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahri (1475,5 mlrd.so'm), Urgut (1068,8 mlrd.so'm), Bulung'ur (520,0 mlrd.so'm),

Pastarg'om (483,9 mlrd.so'm), Ishtixon (323,0 mlrd.so'm), Samarqand (206,9 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



**2018 yil yanvar-sentyabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati**




Hududlar bo`yicha ko'proq xizmatlar hajmi Samarqand shahrida (2335,8 mlrd.so'm), Urgut (341,6 mlrd.so'm) va Samarqand (281,6 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2018 yil III-chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o`tkazildi. Unda 83 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma`lumlotlari tahlili, iqtisodiy vaziyatni – qulay 28,9 % qoniqarli esa 61,4 % deb hisoblashini, mos ravishda respondentlarning iqtisodiy vaziyatni qulay yoki qoniqarli deb baholashi qurilish sohasida – 9,1 % va 63,6 %, savdo sohasida –

47,4 % va 47,4 %, xizmatlar sohasida – 28,6 % va 71,4 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 33,3 % va 50,0 %, sanoatda – 20,0 % va 70,0 % ni tashkil qilganini ko`rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 16,7 %, qurilishda – 27,3% ni tashkil qildi.

**Iqtisodiy vaziyatni baholash**
**2018 yil III–chorak uchun, %**




**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin** uch oyda 20,0 % sanoat korxonalari, 47,4 % – savdo, 28,6 % – xizmatlar, 33,3 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 9,1 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

**Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini**
**yaqin uch oyda baholanishi, %**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Viloyat statistikasi boshqarmasi
Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish
statistikasi bo'limi
Mas'ul: T.Begmurodov
Tel: (71) 230-85-26